

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

OLIY TA‘LIMNING

Barcha iqtisodiyot yo‘nalishi bakalavrlari uchun

MIKROIQTISODIYOT
fanidan

**MAVZULAR BO‘YICHA MASALALAR
TO‘PLAMI**

Toshkent -2020

Mustaqil ta'limning maqsadi va mazmuni

Mustaqil ish "Iqtisodiyot" yo'nalishi o'quv rejasida ko'zda tutilgan o'quv jarayonini ajralmagan qismidir.

Mustaqil ishni bajarish talabning auditoriya mashg'ulotlaridan olingan nazariy bilimlariga qo'shimcha bo'lib, talabalarga o'quv ko'nikmalarini egallashga, ijodiy fikrlashni shakllantirishga, ilmiy intilishga imkon beradi.

Mustaqil ish talabning o'rganilayotgan mavzular bo'yicha adabiyotlarni tahlil etishdan, turli avtorlarni konsepsiyasini tanqidiy baholashdan hamda o'zining munosabatidan iborat.

Mustaqil ishni bajarishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ishning mavzusi bo'yicha amaliy ma'lumot yig'ish hamda uslubiy material va adabi adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;

- o'rganilayotgan fan sohasida tajriba olib borish, izlanish, tahlil qilish uslubiyotini egallash;

- ma'lumotlarni tahlil qilish natijasidan ilmiy asoslangan xulosalar, takliflar shakllantirish.

Mustaqil ta'limni tashkil etish

Mustaqil ishni mavzusini tanlash.

Mavzuni tanlash uchun talabaga quyidagi topshiriqlarni bajarish yordam beradi:

"Mikroiqtisodiyot" kursini o'rganish jarayonida paydo bo'ladigan muammoli savollarni aniqlash;

"Mikroiqtisodiyot" fani bo'yicha maxsus periodik jurnallar va chop etilgan maqola va analitik materiallar bilan tanishish.

Mustaqil ta'lim uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti muammolarini echishda mikroiqtisodiyot fani ahamiyati.
2. Bozor muvozanati.
3. Sotuvchi daromadini tovar elastikligiga ko'ra tahlil qilish.
4. Raqobatlashgan bozorda, qisqa muddatli oraliqda ishlab chiqaruvchining muvozanat holati.
5. Bozor muvozanati.
6. Iste'molchining bozordagi harakati.
7. Raqobat va monopoliya.
8. Mehnat bozori.
9. Talab va taklif asoslari.
10. Elastiklik va soliq yukining iste'molchi va ishlab chiqaruvchi o'rtasida taqsimlanishi.
11. Raqobatlashgan bozor samaradorligi.
12. Kapital bozori.
13. Talab va taklif elastikligi.
14. Ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtiruvchi omillar nisbatini tanlash.
15. Ishlab chiqarish xarajatlari.
16. Daromad samarasi. Almashtirish samarasi.
17. Ishlab chiqarish nazariyasi.
18. Ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi va iste'molchi ortiqchaligi.
19. Raqobatlashgan bozorda qisqa muddatli oraliqda korxonada foydasini maksimallashtirish, korxonada taklifi.
20. Daromad samarasi, almashtirish samarasi.
21. Talab va taklif elastikligi.
22. Mehnat bozori.
23. Iste'molchining bozordagi harakati.
24. Korxonada va tarmoqning raqobatlashgan bozorda uzoq muddatli oraliqdagi harakatlari.
25. Elastiklik va soliq yukining iste'molchi va ishlab chiqaruvchi o'rtasida taqsimlanishi.
26. Kapital bozori.
27. Monopolistik raqobat.
28. Sotuvchi daromadining tovar elastikligiga ko'ra tahlil etish.
29. Firmaning uzoq muddatli oraliqda samarali razmeri.
30. Mehnat bozori.
31. Sof monopoliya.
32. Ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtiruvchi omillar nisbatini tanlash.
33. Talab va taklif asoslari.

34. Talab va taklif elastikligi.
35. Ishlab chiqarish nazariyasi.
36. Ishlab chiqarish masshtabi va firmaning uzoq muddatli oraliqdagi samarali razmeri.
37. Daromad samarasi, almashtirish samarasi.
38. Elastiklik va soliqlik yukining iste'molchi va ishlab chiqaruvchi o'rtasida taqsimlanishi.
39. Iste'molchining bozordagi harakati.
40. Raqobat va monopoliya.
41. Raqobatlashgan bozorda uzoq muddatli oraliqda firma va tarmoq harakati.
42. Masshtab samarasi va firmaning samarali razmeri.
43. Raqobat va monopoliya.
44. Mehnat bozori.
45. Iste'molchining bozordagi harakati
46. Masshtab samarasi.
47. Sotuvchi daromadining tovar elastikligiga ko'ra tahlil etish.
48. Bozor muvozanati.
49. Iste'molchining bozordagi harakati
50. Raqobatlashgan bozor samaradorligi..
51. Daromad samarasi, ishlab chiqarish samarasi.

Ishchi reja tuzish va bajarilishini nazorat qilish.

Mustaqil ish rahbarlari talabalar bilan birgalikda topshiriq va uning bajarilishi grafigi ishlab chiqiladi. Mustaqil ishning bajarish grafigi kafedra mudiri va muovini tomonidan tasdiqlanadi.

Ishning asosiy bosqichi-topshiriq asosida talaba tomonidan tuziladigan kengaytirilgan ishchi reja hisoblanadi. Rejaning asosiy parametri bajarish muddatlaridir. Reja rahbar bilan kelishiladi. Ish reja muammoni tahlil etish davomida adabiyotlar va mavzudagi materillar asosida qiman o'zgarishi mumkin.

Mustaqil ta'lim tayyorlashdagi majburiyatlar.

Kafedraning asosiy majburiyatlari:

- mustaqil ish mavzularini tanlashda talabalaraga yordam ko'rsatish;
- ish rahbarlarni taqsimlash, tanlash va tasdiqlashga va bajarilishini nazorat qilish;
- mustaqil ishlarni tayyorlash grafigini tasdiqlash va bajarilishini nazorat qilish;
- mustaqil ishlarga taqriz berish sifatini nazorat qilish.

Ilmiy rahbar majburiyatlari

- mustaqil ish bajarish uchun talabalaraga topshiriq ishlab chiqish;
- ish rejasini tuzishda hamda adabiyotlar tanlashda kerakli yordam ko'rsatish;
- tasdiqlangan grafik asosida konsultatsiya uyushtirish, material yig'ishda, uning tahlilida, umumlashtirishda va qo'llashda maslahatlar berish;
- tasdiqlangan grafik asosida mustaqil ish tayyorlash jarayonida talabalar bilan muntazam uchrashuvlar va suhbatlar o'tkazish;
- mustaqil ish tayyorlash grafigni bajarilishi hamda sifatini nazorat qilishni amalga oshirish;
- Mustaqil ish tayyorlash jarayonida tashkiliy va uslubiy yordam ko'rsatish;
- Taqriz berish.

Talabalar majburiyatlari

- mustaqil ishning o'z mavzusini (kafedra namoyishi asosida) kelishib olish;
- ilmiy rahbari bilan mustaqil ish bajarish grafigini kelishish va unda ko'rsatilgan muddatlarga amal qilish.

Belgilangan muddatlarda kafedra mustaqil ish haqida hisobot taqdim etish.

Oraliq nazorat o'tkazish savollari

1. Resurslarning cheklanganligi,
2. Iqtisodiyotning asosiy masalasi.
3. Cheklangan resurslarni taqsimlash.
4. Resurslarni taqsimlashda narxning ahamiyati, muvozanat narxni shakllanishi
5. Iqtisodiy ehtiyoj tushunchasi,

6. Iqtisodiy ne'matlar va ularning xususiyatlari,
7. O'rinni bosuvchi ne'matlar,
8. To'ldiruvchi ne'matlar,
9. Iqtisodiy resurslar va ularning turlari,
10. Tadbirkorlik qobiliyati tushunchasi,
11. Alternativ xarajatlar va ularni aniqlash
12. Talab tushunchasi,
13. Talab chizig'i, talab chizig'i xususiyatlari,
14. Talab funksiyasi,
15. Talab funksiyasining iqtisodiy mazmuni,
16. Bir omilli va ko'p omilli talab funksiyalari
17. Muvozanatlik,
18. Bozor muvozanati,
19. Muvozanat narx,
20. Muvozanat mahsulot miqdori,
21. Muvozanat nuqta.
22. Bozor muvozanatining mazmuni va ahamiyati,
23. Bozorning muvozanat holatini tiklash xususiyati.
24. Bozor muvozanatining o'zgarishi va unga ta'sir qiluvchi omillar
25. Elastiklik.
26. Elastiklik koeffitsienti va uning ahamiyati,
27. Talabni narxga ko'ra elastikligi,
28. Talab funksiyasi uchun elastiklik koeffitsientini hisoblash,
29. YOysimon elastiklik
30. Iste'mol nazariyasida ne'mat tushunchasi.
31. Iste'molchi tanloviga ta'sir qiluvchi omillar.
32. Naflik tushunchasi va iste'molchi ehtiyojini qondirish darajasi. Naflik funksiyasi,
33. Umumiy naflik,
34. CHekli naflik,
35. CHekli naflikning kamayishi qonuni.
36. Befarqlik egri chizig'i,
37. Befarqlik chiziqlari kartasi va uning xususiyatlari «Daromad-iste'mol» chizig'i va uning ahamiyati.
38. «Daromad iste'mol» chizig'ini aniqlash va uni grafikda tasvirlash. «Narx-iste'mol» chizig'i va uning ahamiyati.
39. «Narx iste'mol» chizig'ini aniqlash va uni grafikda tasvirlash. Normal tovar uchun daromad samarasi va almashtirish samarasi
40. Noaniqlik va tavakkalchilik.
41. Ehtimol tushunchasi.
42. Ehtimolning turlari.
43. Noaniqlik sharoitida tanlash.
44. Tavakkalchilik tushunchasi,
45. Bozor iqtisodiyoti davrida uning zaruriyati va uning vujudga kelishi. Tavakkalchilik o'lchovi.
46. Kutiladigan miqdor
47. Firma tushunchasi tadbirkorlik
48. Firmalarining asosiy shakllari.
49. Xususiy firmalar,
50. xususiy firmada mulk egasi huquqlari.
51. Xususiy firmaning ustun tomonlari va zaif tomonlari.
52. Mas'uliyati cheklangan va cheklanmagan jamiyatlar
53. Ishlab chiqarish mohiyati va ahamiyati.
54. Ishlab chiqarish texnologiyasi.
55. Ishlab chiqarish omillari va ularning turlari.
56. Izokvanta tushunchasi va uning mohiyati.
57. Izokvantalar kartasi va uning xususiyatlari
58. Korxonaning qisqa muddatli va uzoq muddatli oraliqdagi faoliyati. Xarajatlar to'g'risida tushuncha.
59. Ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlash.

60. Boy berilgan imkoniyatlar xarajati va haqiqiy xarajatlar. qaytarilmaydigan xarajatlar.
61. Raqobatlashgan bozor va uning shartlari.
62. Firma daromadi, yalpi daromad o'rtacha daramad,
63. CHEkli daromad va ularni aniqlash.
64. Korxonada foydasi
65. O'rtacha uzoq muddatli xarajat va uni aniqlash.
66. O'rtacha o'zoq muddatli xarajatning xususiyati.
67. Uzoq muddatli oraliqda ishlab chiqarish hajmini tanlash va tarmoqqa qarashli tipik firma muvozanati.
68. Tarmoqning muvozanat holati.
69. Tarmoqning taklifi
70. Raqobat tushunchasi, raqobatlashuvchi firmalar, raqobatlashmagan bozor turlari.
71. Sof monopoliya,
72. Sof monopoliyaga misollar,
73. Monopolistik bozorga kirishdagi to'siqlar,
74. Tabiiy monopoliyalar. Baho tushunchasi, prinsiplari va funksiyalari. Bozor sharoitida amal qiluvchi narx turlari.
75. Narx belgilashda iste'molchi ortiqchaligini egallash.
76. Monopol narx belgilashda «Bosh barmoq» qoidasi. Monopol hokimiyat va jamiyat farovonligi
77. Bozor munosabatlari va mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari.
78. YOllanma ishchilarning optimal sonini aniqlash sharti. Mehnatning chekli mahsuloti.
79. Mehnatning chekli daromadliliigi.
80. Mehnat qaytimi, mehnat sig'imi, mehnat samaradorligi.
81. Mehnat unumdorligini kamayish qonuni
82. Asosiy va aylanma kapital mablag'lar.
83. Ssuda foizi.
84. Loyiha tushunchasi.
85. Investitsiya va investitsiyalash.
86. YAlpi investitsiyalash.
87. Investitsiyani qoplash.
88. Sof investitsiya tushunchasi.
89. Bozor munosabatining kamchiliklari.
90. Bozor muvozanatining buzilish oqibatlari
91. Monopoliya,
92. Tashqi samara: manfiy tashqi samara va musbat tashqi samara.
93. Davlatni atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati.
94. Ichki bozorni himoya qilish siyosati

1-MAVZU: IQTISODIY BAZIS TUSHUNCHALAR


MASALALAR:

1-Masala. Robinzon bir orolda yashaydi. U bir soatda 10 ta kokos yong'og'i yoki 5 kg baliq ovlashi mumkin. Robinzon bir kunda 8 soat ishlasa uning 1 kunlik ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i chizilsin va ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i formulasi aniqlansin.

Echish. Mahsulot ishlab chiqarish variantlarini aniqlaymiz: Robinzon 8 soat davomida kokos yong'og'i tersa 80 ta teradi, lekin baliq ishlab chiqarilmaydi. Agar u bir soatini baliq ishlab chiqarishga sarflasa 70 ta kokos yong'og'i va 5 kg baliq ishlab chiqaradi. Robinzonning ishlab chiqarish variantlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

	Ishlab chiqarish variantlari								
	1	2	3	4	5	6	7	8	9
Kokos	80	70	60	50	40	30	20	10	0
Baliq	0	5	10	15	20	25	30	35	40

Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i



Robinzon bir soat kokos yig'ishdan voz kechsa u 10 ta kokos yong'og'idan voz kechgan bo'ladi, lekin u qo'shimcha 5 kg baliq ishlab chiqaradi. Demak, 10 ta kokos yong'og'ining alternativ qiymati 5 kg baliqqa teng.

2. Robinzonning ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i formulasini aniqlaymiz.

Robinzon bir kunda L soat ishlaydi deylik. SHundan L_b soatni baliq ishlab chiqarishga, L_k soatni kokos yong'og'i yig'ishga sarflaydi.

Demak, $L_a + L_k = 8$ (1). Robinzonning kokos yong'og'i va baliq ishlab chiqarish funksiyalarini yozamiz.

$$K = 10 * L_k \quad A = 5 * L_a \quad (2)$$

Bu erda: K – kokos miqdori (donada);

B – baliq miqdori (kg.da)

(2)-chidan L_k va L_b larni aniqlaymiz

$$L_K = \frac{K}{10} \quad L_A = \frac{A}{5} \quad (3)$$

(3) ni (1)ga qo'yamiz

$$\frac{B}{5} + \frac{K}{10} = 8 \quad \text{ёки}$$

$$K = 80 - 2 * B \quad (4)$$

(4) – funksiya orqali Robinzonni ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'ini aniqlash mumkin va 8 soatlik ish kunida kokos va baliq ishlab chiqarishning barcha kombinatsiyalarini aniqlash mumkin.

2 –masala: Faraz qilaylik oila paypoq va qo'lqop to'qiydi. Bir kunda oila 8 ta qo'lqop yoki 10 ta paypoq to'qishi mumkin. Oila bir yilda 300 kun ishlaydi. Oilaning bir yillik ishlab chiqarish imkoniyatlar formulasini va ishlab chiqarish imkoniyatlar chizig'ini chizing.

Echish.

Oila bir yil ichida paypoq to'qishga L_p ish kuni va qo'lqop to'qish uchun L_q ish kuni sarflaydi deylik. U holda oila paypoq P va qo'lqop Q ishlab chiqarish funksiyalari mos ravishda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$P = 10L_p \quad Q = 8L_q$$

oila bir yilda qo'lqop va paypoq ishlab chiqarish imkoniyatlari quyidagi kombinatsiyalardan iborat bo'ladi. YAni

$$P = 10L_p \quad (1) \quad Q = 8L_q \quad (2) \quad L_p + L_q = 300 \quad (3)$$

Bu erda P - paypoq miqdori (donada)

Q – Qo'lqop miqdori (donada) bo'lib, mehnat sarfiga bog'liq. Oxirgi tenglik resurslar chegarasini ifodalaydi. (mehnat resursi 300 kun ish kuni bilan chegaralanadi). Ishlab chiqarish imkoniyatlar chizig'ini topish uchun:


(1) va (2) lardan L_p va L_q larni topamiz.

$$L_p = P/10. \quad L_q = Q/8$$

Endi bu munosabatlarni resurs tenglamasi (3) ga qo'yamiz.

$$P/10 + Q/8 = 300 \quad \text{bundan} \quad P = 3000 - 1.25Q$$

Ushbu tenglama oraqali oilaning 300 ish kunida qo'lqop va paypoq to'qish mumkin bo'lgan barcha holatlarni aniqlash mumkin. Oilaning ishlab chiqarish imkoniyatlar chizig'i



3-Masala. Ikkita orol bo'lib, ularning biri robinzonlar oroli, ikkinchisi xindular oroli. Ikkita orol ham go'sht va bug'doy ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Robinzonlar orolida bir ishchi bir

yilda 1 tonna go'sht yoki 20 sentner bug'doy ishlab chiqaradi. Xindular orolida esa bir ishchi 2 tonna go'sht yoki 10 sentner bug'doy ishlab chiqaradi. Robinzonlar orolida 400 kishi, xindular orolida 100 kishi mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

1) Orollarning ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i chizilsin.

2) Go'shtning va bug'doyning aternativ xarajatlari hisoblansin.

3) Ikki orol hamkorlikda ishlashga qaror qilishdi. U holda mehnat taqsimoti natijasida ularning birgalikdagi ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i qanday ko'rinishda bo'ladi; qaysi orol qancha go'sht va bug'doy ishlab chiqaradi?

4-Masala. Alisher va Begzod stul-stol ishlab chiqaradi. Alisher 1 stul ishlab chiqarishga 1 soat, 1 ta stol ishlab chiqarishga 2 soat sarflaydi. Begzod 1 stul ishlab chiqarishga 2 soat, 1 ta stol ishlab chiqarishga 1 soat sarflaydi.

a) Agar ular bir kunda 10 soat ishlasa Alisher bilan Begzodni ishlab chiqarish imkoniyatlari topilsin.

b) Ularni birgalikda ishlagandagi ishlab chiqarish imkoniyatlari aniqlansin.

v) Begzod yangi texnologiyadan foydalana boshladi. Natijada u 2 ta stul ishlab chiqarishga 1 soat, 3 ta stol ishlab chiqarish uchun ham 1 soat sarflaydigan bo'ldi. Ularni ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i va birgalikda ishlagandagi ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i chizilsin.

5-Masala. Firma pryanik va konfet ishlab chiqaradi. Bir quti pryanik tayyorlash uchun 2 kg shakar va 4 kg un ketadi, bir quti konfet uchun 3 kg shakar va 9 kg povidlo sarflanadi. Firmada 90 kg shakar, 90 kg un va 216 kg povidlo bor.

Aniqlansin:

a) Alternativ xarajatlar grafigi chizilsin;

b) Pryanik ishlab chiqarish maksimal bo'lganda ikkala mahsulotning alternativ xarajati topilsin;

v) Pryanik ishlab chiqarish 5 qutidan 8 qutigacha oshganda qancha konfet ishlab chiqarilishi topilsin.

g) Resurslar qachon to'liq sarflanadi?

6-Masala. Xususiy korxonaga egasining 1 mlrd. so'm mablag'i mavjud. Korxonaning bir yillik sarf-xarajati xomashyo va materiallarga 300 mln so'mni, yoqilg'i va elektr energiyasiga 100 mln. so'mni va ish haqiga 400 mln so'mni tashkil etadi. Mahsulot sotishdan sof pul tushumi yiliga 1,2 mlrd. so'mga teng. Korxonaga yopilgan taqdirda uning egasi 1 yilga 5 mln. so'm ish haqi beradigan ish topishi mumkin. Kapitalning yillik foiz stavkasi 20 %. Korxonaga egasi ishni davom ettirgani ma'qulmi yoki mablag'ni depozitga qo'yib, ish topgani ma'qulmi?

7-Masala. Mikrofirmaga egasi o'zidan tashqari yana 2 ta yollanma ishchilar mehnatidan foydalanadi. Yollanma ishchilarga oyiga 400 ming so'mdan, o'ziga esa 600 ming so'mdan ish haqi sarflaydi. Xomashyo xarajatlari oyiga 3 mln. so'm, binoning oylik ijara to'lovi 1 mln. so'mga teng. Agar u xususiy kapitalini yillik 24 foiz stavkasi bankka depozitga qo'yganda oyiga 500 ming so'm, yirik xorijiy kompaniyada mutaxassisligi bo'yicha ishlaganda esa oyiga 800 ming so'm daromad topishi mumkin edi. Firmaning oylik sof pul tushumi 6 mln. so'mga teng. Tadbirkor pul topishning qaysi variantini tanlagani ma'qul?

8-masala. O'zbekistonlik tadbirkor Italiyaga xizmat safariga borishni rejalashtirmoqda. Xizmat safari haftaning CHorshanba kuniga belgilangan. Agar samolyotda ketsa yo'lga 8 soat sarflaydi, chipta narxi 950 dollar (chipta narxiga ovqatlanish qiymati kiritilgan).

Poezdga ketsa yo'lga 7 kun sarflaydi, chipta narxi 450 dollar. Poezdga kuniga 15 dollarlik ovqatlanish xarajatlari qo'shiladi.

Tadbirkor haftasiga 5 kun ishlaydi va kuniga o'rtacha 100 dollardan pul ishlab topishi mumkin.

Tadbirkor qaysi transport vositasida borishi maqsadga muvofiq?

9-Masala. Toshkentdan Samarqandga 3 ta yo'lovchi bormoqchi. Agar ular poezdga borsa 2 soatda boradi, chipta narxi 40 000 so'm. Agar taksida borishsa 4 soatda boradi, yo'lkira narxi 20 ming so'm. Samolyotda boradigan bo'lishsa 1 soatda boradilar, chipta narxi 65 ming so'm. SHaxsiy mashinada borsa 4 soatda boradi, benzin sarfi 32 000 so'm.

Birinchi yo'lovchining 1 soatda topadigan daromadi 10 000 so'm, ikkinchisniki – 6 000 so'm, uchinchisniki – 2500 so'm.

Qaysi yo'lovchi qaysi transport vositasida borishi maqsadga muvofiq?

10-masala: YUNusda quyidagi imkoniyatlar bor. YUNus bu imkoniyatlardan bir vaqtda foydalana olmaydi. 1–imkoniyat Sotuvchi bo'lib, bir oyda 100 ming so'm ish haqiga ishlashi mumkin. 2 – imkoniyat. O'qituvchi bo'lib, bir oyda 300 ming so'm ish haqiga ishlashi mumkin. 3–imkoniyat. Korxonada menejeri bo'lib, bir oyga 500 ming so'm ish haqiga ishlashi mumkin.

a) YUNus korxonada menejerligini tanladi, uning bu tanlovning muqobil qiymati nimaga teng.

b) YUNus o'qituvchilikni tanladi, uning bu tanlovning muqobil qiymati nimaga teng.

Echish.

a) YUNus korxonada menejerligini tanlasa, bu tanlovning muqobil qiymati max (100 ming, 300 ming) = 300 ming so'm.

b) Agar YUNus o'qituvchi bo'lib ishlasa, uning bu tanlovning muqobil qiymati max (100 ming, 500 ming) = 500 ming ga teng bo'ladi.

1-masala. "Bahrom" fermer xo'jaligida 2 ta er maydoni bor. Bu erlarning unumdorliklari bir xil. Birinchi erga bug'doy ekilsa 100 tonna, kartoshka ekilsa 300 tonna hosil olinadi. Ikkinchi erga bug'doy ekilsa 150 tonna, kartoshka ekilsa 480 tonna hosil olinadi.

a) Har bir er maydoni uchun ishlab chiqarish imkoniyatlar chizig'ini chizing.

b) Ikkala er uchun birgalikdagi ishlab chiqarish imkoniyatlar chizig'ini chizing.

c) "Bahrom" fermer xo'jaligi 50 tonna bug'doy etishtirishi bilan birgalikda maksimal qancha kartoshka etishtiradi.

12-masala. Azizbek bir kunda 100 kg olma yoki 150 kg o'rik, Lazizbek esa bir kunda 80 kg olma yoki 120 kg o'rik tera oladi. Ular bir oyda 20 kun ishlaydi.

a) Azizbekning bir oylik ishlab chiqarish imkoniyatlar chizig'ini chizing.

b) Lazizbekning bir oylik ishlab chiqarish imkoniyatlar chizig'ini chizing.

c) Ular birgalikda ishlay boshlasa, ishlab chiqarish imkoniyatlar chizig'i qanday bo'ladi?

2-MAVZU: TALAB VA TAKLIF TAHLILI ASOSLARI. BOZOR MUVOZANATI

1. Masala: O'zbekiston Respublikasi valyuta bozorida AQSH dollarining muvozanat ko'rsatkichlari quyidagicha:

1 AQSH dollari $P_e = 1760$ so'mga teng bo'lganda, bir oyda AQSH dollariga bo'lgan talab va taklif hajmi $Q_e = 48\,000$ mln. dollarga teng. Bozor holatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, dollarning so'mga nisbatan kursi 1740 so'mgacha pasaysa, dollarga bo'lgan talab 48 500 mln. dollarga o'sadi, dollar taklifi esa $Q_s = 45\,600$ mln. dollarga qisqaradi.

a) respublika valyuta bozorida AQSH dollariga bo'lgan talab va taklif funksiyasini aniqlang;

b) bozordagi dollarning muvozanat ko'rsatkichlarini hisoblang;

v) davlat tomonidan dollarning rasmiy kursi 1000 so'm qilib o'rnatilganda davlatning bunday baho siyosati qanday oqibatlarga olib kelishini hisoblang;

g) qora bozordagi bir dollar kursini hisoblang.

2. Masala. Talab funksiyasi quyidagicha berilgan: $Q_d = 120 - 2P$

Funksiyadan foydalanib ushbu ko'rsatkichlarni aniqlang:

a). Tovar narxi 16 dollar bo'lganda talab hajmi (Q_d) va sotuvchi daromadi (TR) qanchani tashkil etadi?

b). Sotish xajmi 20 birlik bo'lganda sotuvchi daromadi aniqlansin.

2. Masala. Biror tovarga bulgan talab va taklif quyidagi funksiyalar orqali berilgan:

$$Q_d = 1000 - 40P$$

$$Q_s = 300 + 30P$$

Aniqlansin:

- a) muvozanat narx (P_e) va muvozanat talab (Q_d) hamda taklif (Q_s) miqdorini;
- b) talab 20 foizga qisqaradi, bu qisqarish ushbu tovarni sotuvchining daromadiga (TR) qanday ta'sir qiladi.

3. Masala: Biror mahsulotga bo'lgan talab va taklif quyidagi funksiyalar orqali berilgan:

$$Q_D = 1000 - 40 \cdot P$$

$$Q_S = 300 + 30 \cdot P$$

- a) Ushbu mahsulot bozorining muvozanat ko'rsatkichlari (R_e) va (Q_e) aniqlansin;
- b) Davlat ushbu tovarga narxni 15 dollar qilib belgiladi. Ushbu qaror qanday oqibatlarga olib kelishi ko'rsatilsin;
- v) Norasmiy bozor parametrlari aniqlansin;

5. Masala: Biror mahsulotga bo'lgan talab va taklif hajmi quyidagi formulalar bilan berilgan:

$$Q_d = 3550 - 266 \cdot P$$

$$Q_s = 1800 + 240 \cdot P$$

- a) muvozanatli talab va taklif miqdori va narxni aniqlang.
- b) talab 10 % ga qisqardi, bu qisqarish sotuvchining daromadiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

6. Masala: Faraz qilaylik talab va taklif funksiyalari quyidagicha berilgan.

$$Q_D = 80 - 3P$$

$$Q_S = 20 + 2P$$

Davlat har bir tovar uchun 5 so'm soliq belgiladi.

Topish kerak:

- a) muvozanat narx va mahsulot hajmi qanday o'zgaradi?
- b) ushbu soliqdan davlat qancha daromad ko'radi?
- v) iste'molchi va ishlab chiqaruvchilar qanchadan soliq to'laydi.

7. Masala: Talab va taklif funksiyalari A tovar uchun quyidagicha:

$$Q_D = 600 - 25 \cdot P$$

$$Q_S = 150 + 50 \cdot P$$

Davlat har bir sotilgan mahsulotga 5 so'm soliq belgiladi.

- a) Muvozanatli talab va taklif miqdori va muvozanatli narx aniqlansin.
- b) ushbu tovarni sotuvchi va oluvchilar qanchadan daromad yo'qotadilar?

8. Masala. Kartoshka bozori muvozanat holatga yaqin. Har kuni 3600 tonna kartoshka $P = 300$ so'm narxda sotiladi. Kartoshka narxi 10 foizga oshsa, taklif 15 foizga oshadi. Kartoshkaning chiziqli taklif funksiyasi aniqlansin.

9. Masala. Faraz qilaylik talab va taklif funksiyalari berilgan:

$$Q_D = 100 - 2P \quad \text{va} \quad Q_S = 20 + 3P$$

Davlat har bir sotiladigan tovar uchun 10 so'm soliq belgiladi. Aniqlansin:

- a) Muvozanat narx va muvozanat mahsulot miqdori qanday o'zgaradi?
- b) Ushbu soliq stavkasi davlatga qancha daromad keltiradi?
- v) Iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar qanchadan soliq to'laydi?

10. Masala. SHakar bozori muvozanat holatiga yaqin. Har kuni 3600 tonna shakar $P=1300$ so'm narxda sotiladi. SHakar narxi 10 foizga oshsa, taklif 14 foizga oshadi. SHakarning chiziqli taklif funksiyasi aniqlansin.

11. Masala. Biror tovarga talab funksiyasi $Q_D = 600 - 2P$, taklif funksiyasi $Q_S = 120 + 2P$.

Aniqlansin: agar davlat har bir tovar uchun 12 so‘m subsidiya belgilasa bozorning muvozanat parametrlari qanday o‘zgaradi va davlat subsidiya uchun qancha mablag‘ ajratadi?

12. Masala. Bug‘doy bozorida bug‘doyga bo‘lgan talab va taklif funksiyalari quyidagicha

$$Q_D = 400 - 3P$$

$$Q_S = 50 + 4P$$

Davlat ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab quvvatlash maqsadida 1 kg bug‘doy narxini 100 so‘m qilib belgiladi.

Davlatning ushbu narx siyosati oqibatlarini tahlil qilinsin.

13. Masala. Talabalar oshxonasida tushlik ovqatga bo‘lgan talab va taklif funksiyalari berilgan:

$$Q_D = 3800 - 90P \quad Q_S = -1000 + 150P$$

Q – bir kundagi tushlik ovqat miqdori;

P – tushlik ovqat narxi

Rektor buyrug‘i bilan har bir tushlik ovqatga 4 rubl subsidiya berildi. Ushbu qarorning oqibati tahlil qilinsin.

14. Masala. Biror tovar bozorida talab funksiyasi $Q_D = 120 - P$ va taklif funksiyasi $Q_S = -9 + 2P$. Ishlab chiqaruvchilar har bir tovar uchun byudjetga 1,5 dollar soliq to‘laydi.

Aniqlansin:

a) Byudjetga to‘lanadigan soliq miqdori;

b) Iste‘molchilar va ishlab chiqaruvchilarning yutuqlari soliq to‘lagandan keyin qanday o‘zgaradi?

15. Masala. Biror tovarga bulgan talab va taklif quyidagi funksiyalar orqali berilgan:

$$Q_D = 1000 - 40P \quad Q_S = 300 + 30P$$

a) talab 20 foizga qiskardi, bu qisqarish ushbu tovarni sotuvchining daromadiga kanday ta‘sir qiladi.

16. Masala. Tovarga bo‘lgan talab va taklif quyidagi funksiyalar orqali berilgan.

$$Q_D = 200 - 3P \quad Q_S = -50 + 2P$$

Agar davlat har bir tovar uchun 10 so‘m subsidiya bersa bozor parametrlari qanday o‘zgaradi?

17. Masala. Talab funksiyasi berilgan: $Q_D = 400 - 5P$

Aniqlansin:

a) Maksimal daromad;

b) Sotish xajmi 100 ga teng bo‘lganda daromad;

v) Tovar narxi 20 so‘m bo‘lganda daromad xajmi;

18. Masala. Biror tovarga talab funksiyasi $Q_D = 90 - P$, taklif funksiyasi $Q_S = -12 + 2P$. Ishlab chiqaruvchilar har bir ishlab chiqarilgan tovar uchun 3 so‘m subsidiya oladi.

Aniqlansin: iste‘molchi va ishlab chiqaruvchi yutuqlari subsidiya berilgandan keyin qanday o‘zgaradi va qanchaga teng bo‘ladi?

19. Masala. Talab funksiyasi berilgan: $Q_D = 120 - 2P$.

Aniqlansin:

a) Maksimal daromadni ta‘minlovchi narx;

b) Maksimal daromad;

v) Tovar narxi 16 so‘m bo‘lganda daromad;

- g) Sotish xajmi 20 bo'lganda daromad
 d) Maksimal daromad olganda talab elastiklik koeffitsienti.

20. Masala. Biror tovarga bulgan talab va taklif quyidagi funksiyalar orqali berilgan:

$$Q_d = 1000 - 40P$$

$$Q_s = 300 + 30P$$

a) Davlat ushbu tovar narxini 5 so'm qilib belgiladi. Ishlab chikaruvchi va iste'molchi ortikchaliklari kandy o'zgaradi, to'liq yo'qotish nimaga teng.

21. Masala. Biror tovarga bulgan talab va taklif funksiyalari kuyidagicha berilgan:

$$Q_d = 600 - 25P$$

$$Q_s = 150 + 50P$$

Davlat har bir sotiladigan tovarga 2 so'm miqdorda soliq belgiladi. Iste'molchi va ishlab chiqaruvchilar qanchadan yo'qotadilar, aniqlansin.

22. Masala. Talabalar oshxonasida tushlik ovqatga bo'lgan talab va taklif funksiyalari berilgan:

$$Q_D = 2400 - 100P$$

$$Q_S = 1000 + 250P$$

Q – bir kundagi tushlik ovqat miqdori;

P – tushlik ovqat narxi

Rektor buyrug'i bilan har bir tushlik ovqat narxini 3 dollar qilib belgilandi. Ushbu qarorning oqibati tahlil qilinsin.

23. Masala. Talab va taklif funksiyalari. A tovar uchun quyidagicha:

$$Q_d = 600 - 25P$$

$$Q_s = 150 + 50P$$

Davlat xar bir sotilgan tovarga 2 so'm soliq belgiladi. Ushbu tovarni sotuvchi va oluvchi qanchadan yo'qotadilar.

24. Masala. Biror tovarga bulgan talab va taklif funksiyalari kuyidagicha berilgan:

$$Q_d = 600 - 25P$$

$$Q_s = 150 + 50P$$

Davlat mahsulot narxini 8 so'm qilib belgilaydi. Davlatning ushbu iqtisodiy siyosati qanday oqibatlarga olib keladi.

25. Masala. Ayollar shubasiga bo'lgan talab va taklif funksiyalari quyidagicha:

$$Q_d = P^2 - 7P + 12;$$

$$Q_s = 3P - 4.$$

Berilgan funksiyalardan foydalanib muvozanat narx va muvozanat xajm aniqlansin hamda grafikdagi ko'rinishi aks ettirilsin.

Berilgan funksiyalardan foydalanib muvozanat narx va muvozanat xajm aniqlansin hamda grafikdagi ko'rinishi aks ettirilsin.

$$\text{Echimi: } P^2 - 7P + 12 = 3P - 4 \Rightarrow P^2 - 10R + 16 = 0$$


$$D = b^2 - 4ac = 100 - 4 * 16 = 36$$

$$P_{1,2} = \frac{-b \pm \sqrt{D}}{2a}$$

$$P_1 = 8; P_2 = 2.$$

Birinchi muvozanatlik nuqta: $R_1 = 2, Q_1 = 3 * 2 - 4 = 2.$

Ikkinchi muvozanatlik nuqta: $R_2 = 8, Q_2 = 3 * 8 - 4 = 20$



26. Masala. Apelsin bozorida apelsinga bo'lgan talab va taklif funksiyalari quyidagicha:

$$Q_d = 20000 - 2P$$

$$Q_s = 2000 + P$$

Mandarin bozorida esa talab va taklif funksiyalari quyidagicha:

$$Q_d = 24000 - 2P$$

$$Q_s = 4000 + 3P$$

Apelsin bozorida taklif qisqarishi oqibatida muvozanat narx 6200 so'mga ko'tarildi.

Aniqlanishi lozim:

1. Apelsin taklifi va uning chizig'i qanday o'zgarishini izoxlang hamda apelsin bozorida o'zgargan vaziyat mandarin bozoriga qanday ta'sir ko'rsatadi, ya'ni mandaringa talab qanday o'zgarishini aniqlang?
2. Mandarin va apelsinning kesishgan talab elastikligi $E_{tm} = +0.28$ ga teng bo'lsin. Agar apelsinning narxi 20 foizga ko'tariladigan bo'lsa, mandaringa bo'lgan talab necha foizga oshishini aniqlang?

Echimi:

Apelsin bozorida muvozanat holatni aniqlaymiz. Buning uchun taklif va talab funksiyalarini tenglashtirib muvozanat narxni topib olamiz:

$$Q_e = Q_s = Q_d$$

$$Q_e = 20000 - 2P = 2000 + P$$

$$18000 = 3P$$


$P_e = 6000$ so'm Demak muvozanat narx 6000 so'mni, muvozanat xajm esa $Q_e = 2000 + 6000 = 8000$ kg.

Apelsin taklifi qisqarishi natijasida muvozanat narx 6200 so'mni tashkil qilganligi bois o'zgargan taklif xajmini quyidagi amalni bajarib aniqlaymiz:

$$20000 - 2 \cdot 6200 = 2000 + 6200 - X$$

$$7600 = 8200 - X$$

$$X = 600$$



Yangi taklif funksiyasi $Q_s' = 2000 + P - 600 = 1400 + P$

$Q_d = 20000 - 2 \cdot 6200 = 7600$ kg. Ko'rinib turibdiki iste'molchilar tomonidan bildirilayotgan talab xajmi 400 kg qisqarmoqda.

$\Delta Q_d = 8000 - 7600 = 400$. Ushbu iste'molchilar o'z ehtiyojlarini o'rinbosar tovar orqali ta'min etishga xarakat qilib mandaringa bo'lgan talabning o'zgarishiga sababchi bo'ladilar. Mandaringa bo'lgan talab quyidagicha o'zgaradi:

Iste'molchilar soni o'zgarmasdan oldin mandarin bozoridagi muvozanat holatni aniqlaydigan bo'lsak, taklif va talab funksiyalarini o'zaro tenglashtirib muvozanatlik parametrlarini topamiz:


$$Q_e = Q_s = Q_d$$

$$24000 - 2P = 4000 + 3P$$

$$20000 = 5P$$

$$P_e = 4000 \text{ so'm.}$$

$$Q_e = 4000 + 3 \cdot 4000 = 16000 \text{ kg.}$$



O'zgargan talab funksiyasi $Q'_d = 24000 - 2P + 400 = 24400 - 2P$ 16000 16240

$$Q'_d = Q_s$$

$$24400 - 2P = 4000 + 3P$$

$$20400 = 5P$$

$$P = 4080 \text{ so'm } Q_e = 4000 + 3 \cdot 4080 = 16240 \text{ kg.}$$

$$\Delta Q = 240 \text{ kg.}$$

27. Masala. X tovarga bo'lgan talab funksiyasi ushbu ko'rinishda berilgan: $Q_x = 18 - P_x + 2P_y$
Y tovarning narxiga bog'liq X tovarga bo'lgan kesishga talab elastikligini toping, agar ularning narxlar 4 va 3 dollarni tashkil etadigan bo'lsa.

28. Masala. A tovarning talab va taklif funksiyalari quyidagicha aniqlandi: $Q_d = 7 - P$; $Q_s = -2 + 2P$
Davlat xar birlik tovarga 1,5 dollar aksiz soliq belgiladi. Bozor muvozanati qanday o'zgarishi va davlat byudjetiga kelib tushadigan soliq miqdori aniqlansin.

29. Masala. Ichki bozorda A tovarning xalqaro bozordagi narxi 10 pul birligi qilib belgilandi. Aniqlansin: agar, davlat xar birlik tovarga 10 pul birligida subsidiya ajratadigan bo'lsa, import xajmi qanday o'zgaradi; import qaramligidan qutilish uchun davlat xar birlik tovarga qancha subsidiya ajratishi lozim; eksport xajmi 15 donani tashkil etishi uchun qancha miqdorda subsidiya ajratilishi kerak.

30. Masala. Raqobatlashgan bozorda aniq bir tovarga bo'lgan talab va taklif funksiyalari quyidagicha berilgan:

$$Q_d = 10 - P; Q_s = -5 + 2P$$

Ishlab chiqaruvchilar har birlik tovardan davlat byudjetiga 1.5 pul birligida solshiq to'laydilar.

Aniqlansin:

1. Istemolchilar va ishlab chiqaruvchilarning soliq to'lashdan oldingi yutuqlari;
2. Soliq to'langandan keyingi yutuqlari.

31. Masala. Faraz qilaylikki, "golden" deb nomlangan olma naviga bo'lgan bir oylik talab funksiyasi ushbu ko'rinishda berilgan bo'lsin,

$$Q_d = 100 - 3P_g + 2P_o + 0,01I$$

Bu erda, (100) o'zgarimas parametr bo'lib, olmaning narxi nolga teng bo'lganda talab xajmi 100 birlikka teng bo'lishini anglatadi;

(-3R_G) esa, agar "golden" navli olmaning bir kilogramm narxi bir so'mga ko'tarilganda ushbu olmaga bo'lgan talab xajmi uch kilogrammga pasayib ketishini anglatadi;

(+2R_O) esa, boshqa navli olmaning narxi (o'rinbosar) bir so'mga oshganda "golden" olmasiga bo'lgan talab ikki kilogrammga oshishini ko'rsatadi;

(+0.01I) koeffitsenti esa, iste'molchilar daromadlarining xar yuz so'mga oshishiga "golden" olmasiga bo'lgan talab xajmining 1 kilogrammga oshishini anglatadi.

Quyidagi shartlar berilgan: bir kg "golden" navli olmaning bozor narxi R=400 so'm; boshqa sortli olmaning narxi R_O=300 so'm; iste'molchilarning bir oylik daromadlari I=200000 so'm bo'lsa, "golden" navli olmaga bo'lgan bir oylik talab xajmi aniqlansin.

$$d = 100 - (3 \cdot 400) + (2 \cdot 300) + (0,01 \cdot 200000) = 1500.$$

Faqat bir omil ta'sir qilganda va boshqa omillar o'zgarmas deb qabul qilingandagi sharoitda xisoblab chiqamiz:

Faqat narx Rg omili ta'sir ko'rsatganda: $Q_d=100+(2*300)+(0.01*200000)-3P_g \Rightarrow Q_d(P_g)=2700-3P_g$;

Ro uchun: $Q_d(P_o)=100-(3*400)+(0.01*200000)+2P_o \Rightarrow Q_d(P_o)=900+2R_o$;

I uchun: $Q_d(I)=100-(3*400)+(2*300)+0.01I \Rightarrow Q_d(I)=-500+0.01I$.

3-MAVZU: TALAB VA TAKLIF ELASTIKLIGI

1. Masala: SHakarning narxi 950 so'm bo'lganda oila bir yilda 50 kg shakar iste'mol qilgan. SHakar narxi 1050 so'mga ko'tarildi. SHakarning narxga ko'ra elastikligi -0,9 ga teng. Oila keyingi yilda necha kilogramm shakar iste'mol qilishi mumkin? Masalani yoysimon elastiklik formulasi orqali hisoblang.

2. Masala. SHahar avtobusi chiptasi narxi 300 so'm. Bir kundagi passajirlar soni 750 000 kishini tashkil qiladi. Qisqa muddatli oraliqda chiptalarga talab elastikligi -0,6 ga teng. Taklif elastikligi 2 ga teng.

a) qisqa muddatli oraliqda chiptalarga bo'lgan talab va taklif funksiyalari aniqlansin;

b) Faraz qilaylik, benzin narxi ortishi munosabati bilan aholining shaxsiy avtomobildan foydalanishi kamayadi. Natijada avtobus chiptalariga talab 10 foizga ortdi. CHiptaning yangi muvozanat narxi aniqlansin;

v) SHahar ma'muriyati chiptalar narxini oshirishni man qildi. Ushbu qaror natijasida talab va taklif hajmi nechaga teng bo'ladi, qondirilmagan talab hajmi nimaga teng?

3. Masala. X tovarga bo'lgan talab funksiyasi ushbu ko'rinishda berilgan: $Q_x=18-P_x+2P_y$

Y tovarning narxiga bog'liq X tovarga bo'lgan kesishgan talab elastikligini toping, agar ularning narxlari 4 va 3 dollarni tashkil etadigan bo'lsa. **Echimi.**

$$Q_x=18-4+2*3=20$$

$$\Delta Q_x/\Delta P_y=2$$

$$E_{xy}=P_y/Q_x * \Delta Q_x/\Delta P_y=3/20*2=0.3$$

4. Masala. Aytaylik biror tovarga bo'lgan talab funksiyasi quyidagicha berilgan bo'lsin:

$$Q=245-3.5P$$

Agar tovarning narxi 10 dollarga teng bo'lsa, narxga bog'liq talab elastikligini aniqlang.

Echimi: Elastiklik koeffitsenti hisoblash uchun biz tovarning narxi R xajmi Q va dQ/dP larni bilishimiz lozim bo'ladi. Tovarning narxi 10 dollar bo'lganda,

$$Q=245-3.5*10=245-35=210.$$

$$dQ/dP=-3,5.$$

Endi esa, aniqlangan raqamlarni elastiklik formulasiga qo'ysak, quyidagi natijani olamiz:

$$E_p = \frac{dQ}{dP} * \frac{P}{Q} = -3.5 * \frac{10}{210} = -\frac{1}{6} = -0.167$$

Mazkur -0.167 raqami shuni anglatadiki, agar tovarning narxi 1%ga o'zgarsa talab xajmi 0.167%ga o'zgarishini bildiradi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, tovarning narxi 10 dollar bo'lganda talab noelastikdir.

5. Masala. Teskari talab funksiyasi berilgan: $P=940-48P+Q^2$

Ushbu funksiyadan foydalanib talb xajmi $Q=10$ bo'lganda narxga bog'liq talab elastikligin hisoblang.

$$P=940-48(10)+(10)^2$$

$$P=940-480+100=560$$

Endi esa dQ/dP ni topib olishimiz kerak. Buni tubandagicha aniqlaymiz:

$$dP/dQ=-48+2Q$$

Matematik isbotlangan, ya'ni $\frac{dQ}{dP} = \frac{1}{dP/dQ}$ o'rniga qo'ysak, $\frac{dQ}{dP} = \frac{1}{-48+2Q}$ ifodaga ega

bo'lamiz. $Q=10$ da ushbu qiymatga ega bo'lamiz: $\frac{dQ}{dP} = \frac{1}{-48+2(10)} = -\frac{1}{28}$

Demak, CHiqqan qiymatlarni elastiklikni topish formulasiga qo'ysak,
$$E_p = \frac{dQ}{dP} * \frac{P}{Q} = -\frac{1}{28} * \frac{560}{10} = -2$$
 ga ega bo'lamiz.

Narx 560 dan bir foizga oshsa ushbu tovarga bo'lgan talab xajmi 2 foizga qisqarar ekan. Bundan kelib chiqadiki, talab elastikdir.

6. Masala. Ruchkaga bo'lgan taklif funksiyasi quyidagicha berilgan: $Q_s = 3200 + 30R$

Talab elastikligi $E_d = -0.6$;

Ruchkaning muvozanat narxi 60 so'm bo'lsa,

1) Talab funksiyasini hosil qiling;

2) Davlat xar birlik ruchka uchun 8 so'm soliq belgiladi natijada iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar zimmasiga tushudigan soliq miqdorini xisoblang hamda jamiyatning sof yo'qotishini aniqlang.

7. Masala: Talab funksiyasi quyidagicha berilgan: $Q_d = 80 - 5P$

Narx o'zgarishi natijasida talabni narxga ko'ra elastikligi -2 dan -0,5 gacha tushdi. Sotuvchining daromadi qanday o'zgaradi?

8. Masala: Talab funksiyasi $Q_d = 60 - 2R$ berilgan. Qaysi narxda talabni narx bo'yicha elastiklik koeffitsienti -2 ga teng bo'ladi?

9. Masala. Taklif elastikligi 4 ga teng. Mahsulot birligining bahosi 12 dollar. Mahsulot taklifi hajmi 15000 birlik.

a) Taklif funksiyasini aniqlang.

b) Agar talab funksiyasi $Q_D = 105000 - 7500 \cdot P$ formula bilan berilgan bo'lsa, taklif hajmi 25 % ga o'sgan holatdagi muvozanatli narx va mahsulot miqdorini hisoblang.

10. Masala: Taklifning chiziqli funksiyasi berilgan bo'lsin: $Q_s = -30 + 3 \cdot P$ Baho $P = 240$ bo'lganda taklifning narxga bog'liq elastiklik koeffitsientini toping.

11. Masala: Sigaret taklifi quyidagi funksiya orqali berilgan: $Q_s = 3200 + 4R$

Muvozanat narx $R_E = 500$ so'm. har bir sigaret qutisiga davlat 60 so'm aksiz solig'i belgiladi. Agar talabni narxga ko'ra elastikligi -2 ga teng bo'lsa, sigaret bozorining muvozanat parametrlari va talab funksiyasi hamda soliq yukini iste'molchi va ishlab chiqaruvchiga taqsimlanishi aniqlansin.

12. Masala. Bozor o'zining muvozanat holatiga yaqin. Iste'molchining daromadi $R = 100\,000$ so'm bo'lsa, sotiladigan tovar xajmi 125 dona. Tovarga bo'lgan talabni daromadga ko'ra talab elastikligi $E_r^d = 2$ ga teng.

Tovarni daromadga ko'ra talab funksiyasi aniqlansin.

13. Masala. "Qora marvarid" vinosi bozorida unga bo'lgan taklif va talab chiziqli. 2000 yilda 1 shisha vino 1600 so'm bo'lganda, unga bo'lgan bir kunda muvozanat talab 20000 shishani tashkil qildi. Narx bo'yicha talab elastikligi -1,5 va narx bo'yicha taklif elastikligi 0,6. Bundan tashqari yangi "Garmoniya" vinosi bozorga chiqishi bilan "Qora marvarid" vinosiga bo'lgan talab 20 foizga qisqardi. Aniqlansin:

a) "Qora marvarid" vinosining talab va taklif funksiyalarini toping va muvozanat narxi hamda miqdorni aniqlang.

b) "Garmoniya" vinosi bozorga chiqishi bilan "Qora marvarid" sotish qanchaga qisqargan?

v) "Qora marvarid" vinosini sotuvchilarining daromadlari qanchaga kamaygan?

14. Masala. Talab funksiyasi berilgan $Q_D = 100 - 4P$. Talab xajmi qanchaga teng bo'lganda elastiklik koeffitsienti -2 ga teng bo'ladi.

15. Masala. Oilaning guruch mahsulotiga bo'lgan talabi elastikligi -0,3 ga teng. Guruchning narxi 900 so'm bo'lganda oila bir oyda 10 kg guruch iste'mol qilgan. Guruchning narxi 1200 so'mga ko'tarilsa oilaning bir oylik guruch iste'moli necha kg bo'lishi mumkin?

16. Masala. Bir shisha (0,5 litrli) vinoning narxi 1000 so'm bo'lganda, 1 shisha (0,5 litrli) bug'doy arog'iga talab 1000 shishadir. 1 shisha vino narxi ko'tarilib 1200 so'mga teng bo'lganda, bug'doy arog'iga talab ortib 1400 shishani tashkil qildi. Aniqlansin:

a) aroqning vinoga nisbatan kesishgan talab elastikligi hisoblansin.

17. Masala. Tovuq go'shti va mol go'shtining kesishgan talab elastikligi $E_{tm}=+0.28$ ga teng bo'lsin. Agar mol go'shtining narxi 20 foizga ko'tariladigan bo'lsa, tovuq go'shtiga bo'lgan talab necha foizga oshishini aniqlang?

Echimi. Kesishgan talab elastikligi formulasidan foydalansak, $E_{tm}=\frac{\Delta Q}{Q} / \frac{\Delta R}{R}$, ushbu tenglikka ega bo'lamiz $0,28=\frac{\Delta Q}{20\%}$. Mazkur tenglikni echib, $\frac{\Delta Q}{Q}=0,28*20=5,6$ qiymatga ega bo'lamiz. Demak, mol go'shtining narxi 20 foizga ko'tarilsa, tovuq go'shtiga bo'lgan talab 5.6 foizga oshar ekan.

18. Masala. Talab funksiyasi berilgan $Q_D = 100 - 3P$. Talab xajmi qanchaga teng bo'lganda elastiklik koeffitsienti -2 ga teng bo'ladi.

19. Masala. Talabning chiziqli funksiyasi $Q_d = 28 - 2P$, talab miqdori $Q=20$ teng bo'lganda talabning narxga nisbatan elastikligi koeffitsientini hisoblang.

20. Masala. Talab funksiyasi berilgan: $Q_D = 120 - 3P$.

Aniqlansin:

a) Maksimal daromadni ta'minlovchi narx;

b) Maksimal daromad;

v) Tovar narxi 25 so'm bo'lganda daromad;

g) Sotish xajmi 30 bo'lganda daromad

d) Maksimal daromad olganda talab elastiklik koeffitsientini.

21. Masala. Unning narxi 500 so'm bo'lganda oila bir oyda 50 kg un iste'mol qilgan. Un narxi 800 so'mga ko'tarildi. Unning narxga ko'ra elastikligi $-0,2$ ga teng. Oila keyingi yilda necha kilogramm shakar iste'mol qilishi mumkin? Masalani yoysimon elastiklik formulasi orqali hisoblang.

22. Masala. Taklif elastikligi 4 ga teng. Bir birlik mahsulot narxi 12 dollar. Taklif xajmi 15000 birlik.

a) chizikli taklif funksiyasi.

$Q_s = a + bP$ aniklansin.

b) faraz qilaylik talab funksiyasi $Q_d = 105000 - 7500P$ taklif 20%ga oshsa, yangi muvozanat narx va mahsulot miqdori aniqlansin.

23. Masala. Talabning chiziqli funksiyasi $Q_d = 28 - 2P$, talab miqdori $Q=18$ teng bo'lganda talabning narxga nisbatan elastikligi koeffitsientini hisoblang.

24. Masala. "Izumrud" vinosi bozorida unga bo'lgan taklif va talab chiziqli. 2006 yilda 1 shisha vino 2500 so'm bo'lganda, unga bo'lgan bir kunda muvozanat talab 40 000 shishani tashkil qildi. Narx bo'yicha talab elastikligi $-1,2$ va narx bo'yicha taklif elastikligi $0,5$. Bundan tashqari yangi "Izuminka" vinosi bozorga chiqishi bilan "Izumrud" vinosiga bo'lgan talab 15 foizga qisqardi.

Aniqlansin:

a) "Izumrud" vinosining talab va taklif funksiyalarini toping va muvozanat narxi hamda miqdorni aniqlang.

b) "Izuminka" vinosi bozorga chiqishi bilan "Izumrud" vinosi sotish qanchaga qisqargan?

v) "Izumrud" vinosini sotuvchilarining daromadlari qanchaga kamaygan?

25. Masala. Piyoz bozori muvozanat holatga yaqin. Har kuni 2400 tonna piyoz $P = 250$ so'm narxda sotiladi. Piyoz narxi 10 foizga oshsa, taklif 20 foizga oshadi. Piyozning chiziqli taklif funksiyasi aniqlansin.

26. Masala. Talab funksiyasi $Q_d = 600 - 25R$ berilgan. Qaysi narxda talabni narx bo'yicha elastiklik koeffitsienti $-0,5$ ga teng bo'ladi?

27. Masala. Olxo'ring 1 kilogrammi 1800 so'mga teng bo'lganda bozorda 3 ta xaridor chiziqli talab funksiyasi bilan ishtirok etmoqda. Birinchi xaridor 20 kg olxo'ri xarid etdi va uning narxga nisbatan talab elastikligi 2 ga teng. Ikkinchi xaridor 16 kg xarid etdi va uning narxga nisbatan talab elastikligi 1,5 ga teng. Uchinchi xaridor 24 kg xarid etdi va uning narxga nisbatan talab elastikligi 2,5 ga teng. Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

a) Olxo'riga bo'lgan yakka talab funksiyalarini aniqlang;

b) Analitik va grafik yordamida bozor talabini shakllantiring va uning elastiklik koeffitsientini hisoblang;

v) Birinchi, ikkinchi va uchinchi xaridorlarning narxga nisbatan elastiklik koeffitsientlari mos ravishda -1 ; -2 ; $-3,5$ ga teng bo'lganda talab funksiyasida yuz beradigan o'zgarishlarni hisoblang.

Echimi: Birinchi xaridorning chiziqli talab funksiyasi:

$$E_p^d = b \frac{P}{Q} \Rightarrow 2 = b \frac{1800}{20} \Rightarrow \frac{40}{1800} = b \Rightarrow b = \frac{1}{45}$$

